

INTERNETDAN SAMARALI FOYDALANISH DAVR TALABI.

**Haydarova Shoira Hakimovna**

Buxoro pedagogika texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada internetdan foydalanish odoblari, qoidalari uning foydasi va zarari haqida ma'lumot berildan. Internetdan foydalanishni qo'llash butun dunyoda shu qadar keng tarqalganki, u mavjud talabalarning o'quv jarayoniga yordam berish imkoniyati yuqoridir. Internet darslar orqali talabalarni qanchalik qiziqtirishi mumkinligini o'rganishdir.

Kalit so'zlar: Texnologiya, internet, effektivlik, o'rganish, kompyuterdan to'g'ri foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtaida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Shundan 3-tashabbus (aholi va yoshlar o'rtaida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan) dir. Kompyuter texnologiyalari va raqamli ommaviy axborot vositalarida talabalarning o'qishni osonlashtirish juda foydali. Sinfda, uyda yoki istalgan joyda, chunki foydalanish uchun qulay internetga ulangan bo'lisingiz kerak.

Internet – insoniyat tafakkuri mahsuli. Ish stolimizda turgan kompyuterga shunchaki elektron qurilma sifatida qaray olmaymiz. Internet axborot olish,

almashish va uzatishning eng samarali, qulay vositasidir. O‘tib borayotgan asr zamondoshi sifatida ish faoliyatimiz, ijtimoiy munosabatlarimiz, ta’lim jarayonlari, bir so‘z bilan aytganda, hayotimizni axborot texnika vositalari, shu jumladan, internetsiz tasavvur qilish mushkul bo‘lib qoldi. Buni sababi oddiy: internet yordamida ishlar oson, tez va kamharj bajariladi. Shuningdek, mislsiz qulayliklarga ega ekanligi ham kishilar hayotida internetni keng o‘rin egallashiga sabab bo‘lmoqda. Tasavvur hosil qilish uchun bir misol: Samolyot bilan safarga chiqmoqchi bo‘lgan kishi chipta olish uchun chiptaxonaga borishi, navbatda turib so‘ng chipta sotib olishi, bodi-yu chipta u istagan kunga topilmasa, ortiga qaytib ketishiga to‘g‘ri keladi. Endi xuddi shu ish internet orqali amalga oshirilsa-chi?! U uyda o‘tirib, chipta xarid qiladi, vaqt kelganda, tayyoragohda uchishdan oldin avtomatdan elektron chiptasini oladi. Bu ish avvalgisiga solishtirilganda, ancha kamxarj va osonroq. Chiptaxonaga borib ovora bo‘linmaydi, navbatga turilmaydi, ustiga ustak arzonga tushadi. Shuning uchun davlatlarda bunday qulayliklarni rivojlantirish, takomillashtirish va undan yuqori darajada foydalanishga harakat qilinmoqda.

Yurtimizda internet foydalanuvchilar soni 2008 yilda 2 million bo‘lsa, hozir kunga kelib 15 milliondan oshgan va ularning aksariyati yoshlar. Aqlli insonlar har doim barcha imkoniyatlardan mukammal foydalanish va bu yo‘lda bo‘ladigan zararlarni iloji boricha daf etishga intiladilar. Barcha ishlarda bo‘lganidek, undan foydalanishning o‘ziga xos qoidalari, shartlari va odoblari mavjud. Ularga rioya etish bilan maqsadga tezroq va sifatliroq erishish mumkin. Aks holda, uning zarar va ofatlari kulfat keltirishi tayin. Yoshlarni chalg‘ituvchi, e’tiqod va aqidaga putur yetkazuvchi, axloqsizlikni targ‘ib qiladigan saytlar ko‘payib bormoqda. Ayrim kimsalar internet orqali bir-biriga tuhmat qilmoqda, haqoratlab so‘kishmoqda, bir-birini sharmanda qilmoqda. Hatto u orqali siyosiy, ijtimoiy, moliyaviy, ilmiy va boshqa ko‘pgina sohalarda ham jinoyatlar sodir etilmoqda. Qo‘pol qilib aytganimizda, internet mazkur qabohatlarni amalga oshirishni osonlashtirmoqda.

Har narsaning qoida va odobi bo‘lganidek, internetdan ham foydalanishning odoblari bor.

-Birinchidan, undan foydalanmoqchi bo‘lgan odam niyatni yaxshi qilgan bo‘lishi kerak. Faqat yaxshilikni, ruxsat berilgan narsalarga muvofiq ish qilishni niyat qilgan odam foyda topadi, ko‘zlagan maqsadiga erishadi.

-Ikkinchidan, internetga kirishdan oldin vaqtini zoe qilmaslik uchun umrining qadrini esda saqlash, uning har lahzasi hisobli ekanini unutmaslik zarur. Aynan bu his-tuyg‘u bo‘lmagani bois, ko‘pchilik unda vaqtini, umrini zoe qilmoqda. Uzoq vaqt, muttasil internetda o‘tirganlar, ayniqsa, bolalar turli kasalliklarga chalinmoqda.

-Uchinchidan, internet orqali o‘zgalar bilan aloqa bog‘lashda “yaxshilik va ezgulik yo‘lida hamkor bo‘lib, yomonlik va dushmanlikdan voz kechish” shiori bo‘lishi zarur. Zotan, inson dunyoni, hayotini chiroyli va obod etishga intilar ekan, barcha sohalarda ushbu shiorga doimo amal qilsa, maqsadiga yetadi.

-To‘rtinchidan, bolalarning internet va kompyuterlardan foydalanishini nazorat qilish lozim. Avvalo, bolalarni kattalar ruxsatisiz yoxud ularning nazoratisiz internetdan foydalanishini man etish lozim. Bu odoblar internetdan unumli, ma’noli ishlatalish uchun zaruriy bo‘lgan odoblar hisoblanib, undan oqilona foydalansak, hayotimizga tatbiq etsak, nur ustiga nur bo‘ladi..

Axborot izlash va olish faoliyati tarkibidagi Internet umumjahon tarmog‘idan foydalanishning alohida aniq cheklovlarini belgilab berish maqsadga muvofiq sanaladi. Sababi, aniq belgilangan cheklovlar fuqarolarning axborot izlash va olishga bo‘lgan huquqlarini mustahkamlab, har xil buzg‘unchi va g‘arazli niyatlardan foydalangan holda inson huquqlari poymol etilishini oldini oladi.

Shu bilan bir qatorda, Internet tarmog‘idan foydalanish vaqtida shaxslarning o‘z huquqlaridan foydalanishning ma’lum doirasi davlat tomonidan aniq belgilab qo‘yiladi. Chunki fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart. Shuningdek, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborotni izlash, olish va uni tarqatish taqiqlanadi.

Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishda hech kimga alohida taqiq mavjud emas. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Mazkur huquqlar mavjud konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari, jamoat xavfsizligi va tartibini himoya qilish, shuningdek davlat siri va boshqa sir deb e’tirof etilgan axborot oshkor etilishiga nisbatan tatbiq etilmaydi. Axborotni izlash, olish, tarqatish yo‘nalishidagi cheklovlar quyidagi holatlar uchun ham tatbiq qilinadi:

- ma’naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor etish;
- shaxsiy hayot daxlsizligini buzish, ya’ni shaxsiy yoki oilaviy sirni tashkil etuvchi shaxsiy hayot to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shaxsning rozilgisiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish;
- yolg‘on axborot tarqatish, ya’ni shaxsning qadr-qimmati kamsitilishiga yoki uning obro‘sizlantirilishiga olib keladigan, yoxud jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborotni tarqatish.

Ta’limda video o‘qitish sinfda o‘rganish modeli sifatida keng qo‘llanilayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi videotasvir, proyektor, kompyuter, televizor va boshqalar kabi audio-vizual vositalardan foydalanish ham yordam beradi. O‘qituvchilar o‘qitish jarayonini osonroq, qiziqarli va samarali tarzda taqdim etishlari kerak deb o’ylaymiz. Biz kompyuter savodxonligini o‘rganishimiz bilan bir vaqtida unda to’g‘ri foydalanish qonun qoidalarini ham o‘rganishimiz kerak bo’ladi. Monitor oldida uzoq vaqt o‘tirib ishlaydiganlar kompyuter bilan me’yoridan ortiq muloqotda bo‘lish sog‘liqqa zararliligin bilishlari kerak. Ayrim kasbiy kasalliklar, ularning oldini olish usullari va bu kasalliklarni davolash metodlarini bilish foydadan holi emas. Sog‘liq uchun xavfsiz bo‘lgan kompyuter va dasturiy ta’minotni qanday tanlab olish, ish joyini tashkil qilishni bilish zarur. Kompyuter bilan ishlashda insonga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar: • • • • uzoq monitorning ko‘z bilaklar vaqt davomida elektromagnit charchashi, bo‘g‘inlarining • axborotni

yo‘qotib qo‘yish vaziyatlaridagi ruhiy zo‘riqish holati. o‘tirib nurlari ko‘p ishlash, ta’siri, ishlashi, toliqishi, Kompyuter oldida o‘tirib ishlashda go‘yo inson erkin joylashgandek bo‘ladi, biroq bunday holat organizm uchun majburiy va noqulay hisoblanadi: bo‘yin, muskullari, bosh, qo‘l va yelkalar bo‘g‘inlari tarang holatda, shu sababli osteoxondroz, bolalarda esa skolioz yuzaga kelish xavfi mavjud. Ko‘p vaqt mobaynida o‘tirib ishlaydigan insonlarda kursi suyanchig‘i va tanasi o‘rtasida issiq kompress hosil bo‘ladi, bu esa inson organizmida gaz, qon turib qolishiga olib keladi, natijada prostatit va gemorroy yuzaga keladi. Bu kasalliklarni davolash uzoq vaqt talab etadi va yoqimsiz holatlarda davom etadi. Bundan tashqari, kam harakatli hayot tarzi ko‘pincha semirib ketishga olib keladi. Elektromagnit nurlari zamonaviy monitorlar salomatlik uchun xavfsiz hisoblanadi, biroq hali to‘la xavfsiz emas. Agarda ish joyingizda eskiroq kompyuter turgan bo‘lsa, yaxshisi undan uzoqroq bo‘ling. Ko‘zlar matn yoki suratning har bir kichik silkinishini qayd etadilar, ekranning jimirlashini esa juda yaxshi ko‘radi. Ko‘z bilan diqqat qilib ishlash ko‘rish qobiliyati yomonlashishiga olib keladi. Ranglarni, shriftni, foydalanilayotgan dasturlarda oynalar joylashtirilishini, ekranni noto‘g‘ri joylashtirish ko‘rish qobiliyatiga yomon ta’sir ko‘rsatadi. Barmoq uchlarning nervlari tugmalarni bosa berishdan go‘yo yorilib ketayotgandek bo‘ladi, jonsizlanib qoladi, natijada barmoq uchlari uvishadi. Bu esa bilaklar (muskullar) bo‘g‘inlari va bog‘lovchi apparati zararlanishiga olib kelishi mumkin, keyin esa bilaklar doimiy og‘riydigan bo‘lib qolishi mumkin. Barcha foydalanuvchilar ham o‘zlarining axborotlari qo‘shimcha nusxasini doimiy ravishda yaratib bormaydilar. Axir viruslar har doim xavf tug‘dirib turadilar, eng yaxshi firmalarning vinchesterlari ham buziladi va eng tajribali dasturchi ham ba’zida boshqa tugmani bosib yuborishi mumkin. natijada bunday stress oqibatida infarkt kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, kompyuter inson psixikaga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Hozirgi zamонни internetsiz tasavvur etish juda qiyin. Internetning insoniyat uchun foydasi va imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Shu bilan birga xavfsizlik borasida ham muammolar kamaygani yo`q. Mamlakatimizga har bir yo`nalishga internet tarmog'i muhim bir bo'lak sifatida kirib keldi. Unda juda katta va o'ta ahamiyatli ma'lumotlar aylanadi-ki, bu ma'lumotlar u yoki bu rivojlanish yo`nalishlarida o'zining inkor etib bo'lmas o'rniغا ega. Ana shu internet olamida yo'qolib qolmaslik, muhim ma'lumotlarga ega bo'lish uchun undan samarali foydalana olish lozim. Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan axborotlardan foydalana olishlari, xususan, nosog`lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to`g`ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo`ladi. Aynan mana shu borada ular kattalar, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma`naviy-ruhiy ko`magiga muhtoj. Shunday ekan, yoshlarga sog`lom axborot muhitini yaratib, ular ma`naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Zero, yoshlar ma`naviyatiga daxldor yumushlarda beparvolikka yo`l qo`yib bo`lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov A.N., Iminov T.K. «O'zbekiston axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasi menejmenti masalalari» Monografiya -T.: Fan va texnologiya, 2005.
2. Sayyoraxon Jabborova , Muxtaramxon Turdaliyeva , Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlari , Ilm-fan va ta'lim: № 6(21) (2024): Ilm-fan va ta'lim jurnali 6(21)-son
3. Muhammadqobilovna, J. S. (2023). Yangi IO 'zbekistonda uchinchi rennesans g'oyasini shakllantirishning dolzarb muammolari.
4. Nazarov Q.N. Biliш falsafasi. –T.: Universitet, 2005.
5. Jabborova, S., & Alixonov , M. (2024). Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi.
6. A. Abduqodirov "Axborot texnologiyalari" Toshkent 2003 yil